

INKLYUZIV BIZNES EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING ROLI

Nusratov Azizbek San'atillayevich

Toshkent xalqaro universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya: *So'nggi yillarda inklyuziv iqtisodiyot va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan biznes modellariga qiziqish ortib bormoqda. Inklyuziv biznes konsepsiyasi jamiyatning barcha qatlamlarini, jumladan, kam daromadli va nogironligi bo'lgan shaxslarni iqtisodiy faoliyatga jalb etishni maqsad qiladi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ushbu jarayonlarga yangi turtki berib, elektron tijorat, onlayn ta'lim, mikroqarz va kraudfanding platformalari orqali inklyuzivlikni kuchaytirmoqda. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli infratuzilmani kengaytirish va ijtimoiy yo'naltirilgan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash choralari belgilangan. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyoti misolida inklyuziv biznes ekotizimini shakllantirishda raqamli platformalarning o'rni, ularning rivojlanish mexanizmlari hamda takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv biznes, raqamli iqtisodiyot, ekotizim, platforma, innovatsiyalar, ijtimoiy tadbirkorlik, O'zbekiston.*

Annotation: *In recent years, there has been a growing interest in business models based on the principles of inclusive economy and social justice. The concept of inclusive business aims to involve all segments of society, particularly low-income, disabled, and marginalized groups, in economic activities. The rapid development of digital technologies has given new impetus to these processes, enhancing inclusivity through e-commerce, online education, microfinance, and crowdfunding platforms. In Uzbekistan, within the framework of the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy, measures have been taken to expand digital infrastructure and support socially oriented innovations. This article analyzes the role of digital platforms in forming an inclusive business ecosystem in Uzbekistan, explores their development mechanisms, and proposes directions for improvement.*

Keywords: *inclusive business, digital economy, ecosystem, platform, innovation, social entrepreneurship, Uzbekistan.*

KIRISH

Inklyuziv biznes zamonaviy iqtisodiy paradigmaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillarining o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadigan innovatsion biznes modelini ifodalaydi. Ushbu konsepsiyaning mohiyati past daromadli va ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlarini iqtisodiy tizimning faol subyektlariga aylantirish, ularning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish hamda turmush darajasini oshirish orqali inklyuziv rivojlanishni ta'minlashdan iboratdir. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy manfaatdorlikni ko'zda tutadi, balki ijtimoiy nomutanosibliklarni kamaytirish va ijtimoiy integratsiyani

kuchaytirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi kompleks mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon banki, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarda inklyuziv biznes barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) erishishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Bu yondashuvda asosiy e'tibor — "hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyiliga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda barcha qatlamlarning ishtirokini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Inklyuziv biznes konsepsiyasi o'zining amaliy va nazariy mohiyatiga ko'ra, bir qator fundamental tamoyillarga asoslanadi. Birinchidan, u ijtimoiy inklyuziya prinsipi orqali jamiyatning barcha qatlamlari, xususan, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj va iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan guruhlarining iqtisodiy jarayonlarda teng ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Ikkinchidan, barqarorlik tamoyili ushbu modelning tarkibiy asosini tashkil etib, iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Uchinchidan, ko'p sektorli hamkorlik yondashuvi inklyuziv biznesni rivojlantirishda davlat boshqaruvi organlari, xususiyl sektor, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli sheriklikni nazarda tutadi. Nihoyat, innovatsionlik tamoyili inklyuziv biznesning dinamik xususiyatini belgilab, yangi texnologiyalar, raqamli yechimlar va ijodiy yondashuvlar asosida mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal etish imkonini beradi.

Inklyuziv biznesning samarali shakllanishi va barqaror rivojlanishi ko'p qirrali tashqi hamda ichki omillar majmuasiga bevosita bog'liqdir. Ushbu omillar orasida, avvalo, iqtisodiy siyosat va tartibga solish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. U biznes subyektlari uchun inklyuziv rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi huquqiy, institutsional va fiskal sharoitlarni belgilab beradi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi inklyuziv iqtisodiyotning zamonaviy bosqichida asosiy determinant sifatida namoyon bo'lib, iqtisodiy subyektlar o'rtasida axborot almashinuvini tezlashtiradi hamda raqamli xizmatlar orqali yangi qiymat zanjirlarini yaratadi.

Bundan tashqari, aholi bandligi va real daromadlar darajasi inklyuziv biznesning ijtimoiy bazasini shakllantiruvchi omil bo'lib, iqtisodiy faollikni kengaytirish va iste'mol talabini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim va innovatsion salohiyat esa inson kapitalining sifat ko'rsatkichlarini oshirish orqali inklyuziv biznes tashabbuslarining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, moliyaviy inklyuziya darajasi — ya'ni aholining bank-moliya xizmatlariga teng imkoniyat asosida kirish darajasi — inklyuziv iqtisodiy mexanizmlarning uzviy tarkibiy elementi hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, elektron to'lov tizimlarining kengayishi, shuningdek, yoshlarning startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati inklyuziv biznes muhitini kuchaytiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli platformalar — bu raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqaruvchi, iste'molchi va boshqa iqtisodiy subyektlar o'rtasida qiymat yaratish jarayonini tashkil etuvchi, dinamik hamda o'zaro integratsiyalashgan iqtisodiy ekotizim hisoblanadi. Ushbu platformalar ma'lumot almashinuvi, ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlik va ishonch asosidagi tranzaksiyalarni raqamli muhitda samarali amalga oshirish imkonini beradi. Natijada, Amazon, Alibaba, Uber va Airbnb kabi global raqamli tizimlar an'anaviy iqtisodiy modelni transformatsiya qilib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yangi daromad manbalarini yaratish va inklyuziv iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishning muhim omiliga aylangan.

Raqamli platformalar inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy vositadir. Ular:

- bozorga kirish to'siqlarini kamaytiradi;
- moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi;
- masofaviy bandlik imkonini yaratadi;
- ta'lim va inson kapitaliga kirishni osonlashtiradi.

Natijada, raqamli platformalar iqtisodiy tenglik, ijtimoiy adolat va bandlikni kuchaytiruvchi muhim drayverga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakat iqtisodiyotida raqamli transformatsiyaning institutsional va huquqiy asoslarini shakllantirdi. Ushbu strategiya doirasida davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya, transport va tadbirkorlik sohalarida raqamli platformalarni joriy etish milliy raqamli infratuzilmaning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. 2024-yilga kelib, respublikada 10 mingdan ortiq kichik va o'rta biznes subyektlari raqamli faoliyatga o'tgan bo'lib, elektron tijorat hajmi 2020–2024-yillar mobaynida uch barobarga oshdi, raqamli to'lovlar ulushi esa umumiy hisob-kitob operatsiyalarining 75 foizini tashkil etdi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli platformalar ekotizimi jadal kengaymoqda. Jumladan, "ZoodMall" kichik biznes subyektlarini global raqamli bozorlarga integratsiyalasa, "IMAN Invest" va "Finlit.uz" moliyaviy savodxonlik va mikroinvestitsiyalar orqali aholining moliyaviy inklyuziyasini chuqurlashtirmoqda. "MyTaxi", "Express24" va "Yandex Go" kabi platformalar gig-ekonomika mexanizmlari orqali bandlikni kengaytirs, "ZiyoNet" va "EduMarket" ta'lim sohasida raqamli inklyuziya va inson kapitali rivojiga hissa qo'shmoqda. Natijada, mazkur platformalar yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarning iqtisodiy faolligini oshirib, ularni raqamli mehnat bozoriga samarali integratsiyalash imkonini yaratmoqda.

O'tkazilgan tadqiqotlar O'zbekistonda raqamli platformalar inklyuziv iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biriga aylanganini ko'rsatmoqda. Jumladan, gig-platformalar orqali bandlik darajasi oshib, aholi qo'shimcha daromad manbalariga ega bo'lmoqda; elektron tijorat va to'lov tizimlari kichik biznesni raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashmoqda; fintex xizmatlari esa aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, ayollar va yoshlar tadbirkorligi raqamli marketing va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi rivojlanish bosqichiga chiqmoqda.

Biroq, raqamli infratuzilmaning hududlar bo'yicha notekis rivojlanishi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi va platformalarning kiberxavfsizlik muammolari ushbu jarayonning samaradorligini cheklab turibdi. Shu sababli, inklyuziv biznesni raqamli platformalar asosida rivojlantirish uchun raqamli infratuzilmani kengaytirish, aholining raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish, innovatsion startaplarni moliyaviy va soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy yo'naltirilgan platformalarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar inklyuziv biznes ekotizimini shakllantirishda zamonaviy iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylanmoqda. Ular iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va aholining turli qatlamlarini iqtisodiy faoliyatga jalb etish orqali barqaror rivojlanishga zamin yaratadi. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari inklyuziv iqtisodiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Biroq hududlar o'rtasidagi raqamli tafovut, past raqamli savodxonlik hamda platformalarning huquqiy va texnik muhofazasi bilan bog'liq muammolar mavjud.

Shu munosabat bilan quyidagilarni taklif etish maqsadga muvofiq:

1. Raqamli platformalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
2. Chekka hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish;
3. Aholining raqamli kompetensiyalarini oshirish dasturlarini kengaytirish;
4. Inklyuziv startaplar uchun imtiyozli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;
5. Ilg'or xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq etish.

Natijada, raqamli platformalar asosidagi inklyuziv iqtisodiyot O'zbekistonning barqaror o'sishi va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. — 2020-yil 5-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP). Inclusive Business and Sustainable Development Goals. — New York, 2021.
4. World Bank Group. Inclusive Growth and Shared Prosperity Report. — Washington D.C., 2022.
5. International Finance Corporation (IFC). The Inclusive Business Models Framework. — Washington D.C., 2023.

6. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. — W.W. Norton & Company, 2014.
7. OECD. Digital Transformation for Inclusive Growth. — Paris, 2022.
8. Islomov A., Raximov F. “Raqamli iqtisodiyot va inklyuziv o’sishning o’zaro bog‘liqligi.” // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2023, №4.
9. Shodiev B. “O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli platformalarning rivojlanish tendensiyalari.” // TDIU Ilmiy axborotlari, 2024, №2.
10. UNCTAD. Digital Economy Report 2023: Cross-border Data Flows and Development. — Geneva, 2023.